

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**


BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

M.A. O‘ktamova

**“BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH SAVODXONLIGI
DARSLARIDA BADIY MATNLARNI O‘QITISH
ORQALI VATANPARVARLIK TUYG‘USINI
SHAKLLANTIRISH METODIKASI”**

mavzusida tayyorlangan

METODIK QO‘LLANMA



Buxoro - 2025

Tuzuvchi: Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti O'ktamova Mehriyoyo A'zamovna.

Ushbu qo'llanma umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf yo'nalishi talabalari va o'qituvchilari uchun yordamchi manba sifatida yaratildi. Qo'llanmada o'qituvchilarning dars jarayonida badiiy matnlarni o'qitish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirish, o'qish savodxonligini oshirish hamda matnni anglash, tahlil qilish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini hosil qilishda ko'maklashuvchi metodik tavsiyalar yoritilgan. Shuningdek, qo'llanmada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos holda tanlangan badiiy asarlar asosida Vatanga muhabbat, milliy g'urur, sadoqat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi, tajribada sinovdan o'tgan interfaol usullar, mashqlar va amaliy ishlanmalar haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Ma'sul muharrir: Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti O'ktamova Mehriyoyo A'zamovna

Taqrizchilar: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

H.G'.Jumayeva

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

S.A.Ikromova

MUNDARIJA

1. Kirish.	4
2. Keys-stady metodi	8
3. Sinkveyn metodi	11
4. "Vatan obrazini his etish" metodi	15
5. Evristika metodi – badiiy matnni tushunishda muammoli tafakkurni shakllantirish vositasi	18
6. “Ta’rif egasini toping” Metodi	22
7. Yangi innovatsion metod: V.A.T.A.N modeli.....	25
8. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatl.....	29

KIRISH

Agar intilsak, astoydil harakat qilsak,
har qanday baland marrani egallash qo‘limizdan keladi.
Biz ma‘rifat borasida, ta‘bir joiz bo‘lsa, “iligi to‘q” xalqmiz.
Ilm-fanga intilish bizning qonimizda,
bugungi til bilan aytganda, genimizda bor.
(Sh. M. Mirziyoyev)

Ta‘lim-tarbiya jarayoni hech qachon to‘xtam va tanaffus bilmaydigan, uzluksiz davom etuvchi murakkab va mas‘uliyatli jarayondir. Chunki Vatanimiz kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, jamiyatimiz taraqqiyoti, eng avvalo, yosh avlodning qanday shaxs bo‘lib voyaga yetishiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘quvchilarda Vatanga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat, fuqarolik mas‘uliyati va ma‘naviy immunitetni shakllantirish bugungi kun ta‘lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev o‘z nutq va asarlarida ta‘lim-tarbiyani davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab, “taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatning qudrati, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan va tarbiyadir” degan fikrni takror va takror ta‘kidlab kelmoqdalar. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi asosida ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, o‘quv dasturlarini yangilash, darsliklar mazmunini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar ham aynan yosh avlodni har tomonlama barkamol, vatanparvar va ma‘naviy yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

So‘nggi yillarda boshlang‘ich ta‘limning mazmuni kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta ko‘rib chiqilmoqda. Bu yondashuv o‘quvchilarda faqat bilim, ko‘nikma va malakalarni emas, balki hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan kompetensiyalarni – mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish, hamkorlikda ishlash, kommunikativ tajriba orttirish, ijtimoiy mas‘uliyatni his etish kabi sifatlarni shakllantirishni talab etadi. O‘qish savodxonligi bu kompetensiyaviy yondashuvning markazida turadigan asosiy sohadan biridir. Chunki o‘qish savodxonligi – barcha boshqa fanlarni o‘zlashtirish, hayot davomida mustaqil ta‘lim olish, axborotni tahlil qilish va tanqidiy baholashning poydevoridir.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda o‘qish savodxonligi faqat harflarni to‘g‘ri, tez va ravon o‘qish bilangina emas, balki matnni anglash, mazmunini tahlil qilish, muallif

g'oyasini his etish, matn asosida xulosa chiqarish, shaxsiy munosabat bildirish, real hayotiy vaziyatlarga qo'llay olish bilan izohlanadi. Demak, boshlang'ich sinf o'quvchisining o'qish savodxonligi darajasi uning fikrlash madaniyati, ma'naviy dunyosi va fuqarolik pozitsiyasi bilan bevosita bog'liqdir.

Badiiy matnlar aynan shu jarayonda alohida o'rin tutadi. Chunki badiiy asarlar:

- bolalarning tasavvur olamini kengaytiradi;
- qahramonlar taqdiriga sherik bo'lish orqali empatiya, hamdardlik, kechinmalarni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi;
- Vatan, xalq, tarix, ona til, bayroq, erkinlik, mehnat, burch kabi tushunchalarni obrazli ifoda etadi;
- o'quvchining ichki dunyosiga ta'sir etuvchi kuchli tarbiyaviy vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Badiiy matn orqali o'quvchi Vatan haqida nafaqat ma'lumot oladi, balki uni his qiladi, ko'nglida yurtga nisbatan mehr, g'urur va sadoqat tuyg'ulari uyg'onadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida badiiy matnlarni o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish masalasi bugungi kunda nazariy va amaliy jihatdan nihoyatda dolzarb bo'lib bormoqda.

Mavzuning dolzarbligi

Globalashuv, raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib borayotgan, turli madaniy va axborot oqimlari kesishib ketgan hozirgi davrda yosh avlod ongini turli yot g'oyalar, iste'molchilik ruhidagi tasvirlar, befarqlikni targ'ib qiluvchi axborot vositalari egallab olish xavfi kuchaymoqda. Bunday sharoitda o'quvchi ongida mustahkam ma'naviy poydevor – Vatanga muhabbat, milliy g'urur, tarixiy xotiraga hurmat, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, mehnatsevarlik, mas'uliyat kabi fazilatlarini shakllantirish zaruriyati yanada oshmoqda.

Boshlang'ich sinf – shaxsning dunyoqarashi, xarakteri, odatlari, qadriyatlari shakllanadigan eng nozik va mas'uliyatli davrdir. Agar aynan shu bosqichda o'quvchi qalbiga Vatan, Ona yurt, milliy qadriyatlar, bayroq, mustaqillik, erkinlik tushunchalari mehr bilan, obrazli va hayotiy misollar asosida singdirilsa, kelgusida bu tuyg'ular barqaror ichki e'tiqodga aylanadi. Agar bu bo'sh qoldirilsa, keyingi bosqichlarda sun'iy targ'ibot, shiorbozlik, formal darslar kutilgan natijani bermaydi. Shu jihatdan bu

mavzuning aynan boshlang'ich ta'limga tadbiquan o'rganilishi amaliy ahamiyat kasb etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayrim maktablarda o'qish darslari hali-hanuz asosan matnni ifodali o'qish, so'z ma'nolarini tushuntirish, reja tuzish, qayta hikoyalash bilan chegaralanib qolmoqda. Badiiy asarning tarbiyaviy potentsiali yetarli darajada ochilmayapti, vatanparvarlik g'oyasi ko'pincha tayyor xulosalar shaklida berilib, o'quvchi qalbiga chuqur singmay qolmoqda. Interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, ijodiy yondashuvlar yetarlicha qo'llanilmayapti. Natijada badiiy matn bolaga hayotiy tajriba manbai, ichki ruhiy o'sish omili sifatida emas, oddiy "o'qilishi kerak bo'lgan matn" sifatida ko'rinib qolmoqda.

Shu sababli badiiy matnlarni o'qitishning yangicha metodikasini ishlab chiqish, ularni vatanparvarlik tarbiyasi bilan uyg'unlashtirish, o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar tizimini yaratish zamon talabi bo'lib turibdi.

Tadqiqotning obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari

Mazkur metodik qo'llanmaning **obyekti** – umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslaridir.

Predmeti – boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida badiiy matnlarni o'qitish jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga yo'naltirilgan metod va texnologiyalar majmuasidir.

Maqsad – boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida badiiy matnlarni o'qitish orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladigan samarali metodik tizimni ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq etish va metodik tavsiyalar ko'rinishida umumlashtirishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilandi:

1. Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini shakllantirish va badiiy matnlarni o'qitish bo'yicha mavjud nazariy va amaliy yondashuvlarni tahlil qilish.
2. Vatanparvarlik tarbiyasining nazariy asoslarini, uning shaxs kamolotidagi o'rnini, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichidagi ahamiyatini ochib berish.
3. Badiiy matnlarning vatanparvarlik g'oyalarini singdirishdagi tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash va tasniflash.

4. O‘qish savodxonligi darslarida qo‘llash uchun Keys-stady, Sinkveyn, “Vatan obrazini his etish”, evristik-kreativ yondashuv, “Ta’rif egasini toping” va V.A.T.A.N modeli kabi metodlarni moslashtirish, ularning bosqichlari va mazmunini ishlab chiqish.
5. Tanlangan badiiy matnlar asosida ushbu metodlardan foydalanishga doir namunaviy dars ishlanmalari, mashq va topshiriqlar tizimini yaratish.
6. Taklif etilayotgan metodik yondashuvlarning samaradorligini amaliyotda sinab ko‘rish, o‘quvchilarda vatanparvarlik tuyg‘usining shakllanish darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqish.
7. Olingan natijalar asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik tavsiyalarni umumlashtirish.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi

Mazkur qo‘llanmaning nazariy-metodologik asosi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim-tarbiya, ma’naviyat, yoshlar masalasiga oid asar va nutqlarida bayon qilingan g‘oyalar, uzluksiz ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar, zamonaviy pedagogika, psixologiya, didaktika sohasidagi ilmiy tadqiqotlar, shuningdek, o‘qish savodxonligini rivojlantirish, badiiy matn ta’limi, vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha milliy va xorijiy olimlar qarashlariga tayangan holda shakllantirildi. L.S. Vygotskiy, J. Bruner, B. Blum kabi olimlarning bola rivojlanishidagi nutq, tafakkur, o‘qish jarayonining ahamiyatiga oid g‘oyalari, shuningdek, milliy pedagog olimlarimizning boshlang‘ich ta’lim metodikasi, ma’naviy tarbiya, shaxs kamoloti haqidagi qarashlari qo‘llanmaning metodologik tayanchini tashkil etadi.

Qo‘llanmaning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati

Ushbu metodik qo‘llanmaning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matnlarni o‘qitish jarayoniga vatanparvarlik tarbiyasini integratsiya qiluvchi **kompleks metodik tizim** taklif etildi;
- Keys-stady, Sinkveyn, VOHE, evristik-kreativ yondashuv, “Ta’rif egasini toping” kabi interfaol metodlar aynan **vatanparvarlik mazmunidagi badiiy matnlar** uchun moslashtirildi va ularni qo‘llash bosqichlari batafsil ishlab chiqildi;

- badiiy matn asosida vatanparvarlik tuygʻusini hissiy, kognitiv, qadriy va xulqiy komponentlar uygʻunligida shakllantirishga qaratilgan **V.A.T.A.N modeli** mualliflik innovatsion metod sifatida ilgari surildi;
- boshlangʻich sinf oʻquvchilarida vatanparvarlik tuygʻusining shakllanish darajasini baholash uchun (bayroq va ramzlarga munosabat, vatan mavzusida fikr bildirish, ijtimoiy masʻuliyatni anglash, hissiy munosabat, xulqiy qarorlar) mezonlar tizimi ishlab chiqildi.

Qoʻllanmaning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda keltirilgan metodik tavsiyalar, namunaviy hikoyalar, mashq va topshiriqlar, dars fragmentlari boshlangʻich sinf oʻqituvchilariga oʻz darslarini mazmunan boy, tarbiyaviy jihatdan samarali, interfaol va qiziqarli tashkil etish imkonini beradi. Metodik qoʻllanma: boshlangʻich taʼlim yoʻnalishidagi talabalarning amaliy tayyorgarligini kuchaytirish; amaliyotchi oʻqituvchilarning metodik mahoratini oshirish; dars ishlanmalari, sinfdan tashqari tadbirlar, “Vatanparvarlik haftaligi”, “Bayroq kuni”, “Ona yurtim – faxrim” kabi maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlar uchun tayanch manba boʻlishi mumkin.

Boshlangʻich taʼlimda badiiy matnning tarbiyaviy salohiyati

Boshlangʻich sinf oʻquvchisi uchun Vatan tushunchasi koʻpincha abstrakt maʼno emas, balki ona, oilasi, hovlisi, maktabi, qishlogʻi, shahri, tabiat manzaralari, bayroq, madhiyadagi ohanglar bilan chambarchas bogʻliq tasavvurlar majmuasidir. Badiiy matn ana shu tasavvurlarni boyitadi, ularga maʼno, hissiy rang va qadriyat yuklaydi. Masalan: Ona yurt haqidagi sheʼrlar orqali bolada ona zaminni ardoqlash, uni asrash, pok saqlash zarurligi; Vatan himoyachilari haqidagi hikoyalar orqali jasorat, mardlik, fidoyilik; Mehnatkash qahramonlar tasviri orqali mehnatsevarlik, halollik, burchni sidqidildan ado etish; Tabiatni asrashga bagʻishlangan asarlar orqali ekologik madaniyat va masʻuliyat kabi fazilatlar shakllanadi.

Bu jarayonda oʻqituvchi badiiy matn ustida ishlashni anʼanaviy “oʻqish – savol-javob – rejaviy qayta hikoyalash” doirasidan chiqarishi, matnni oʻquvchi hayotiy tajribasi, his-tuygʻulari, orzu-intilishlari bilan bogʻlashga eʼtibor qaratishi zarur. Qoʻllanmada aynan shu maqsadga xizmat qiluvchi metodlar tanlangan:

- **Keys-stady** – badiiy voqeani real hayotiy vaziyat sifatida koʻrish, yechim izlash, axloqiy tanlovlarni baholash;
- **Sinkveyn** – Vatan, bayroq, Ona yurt kabi tushunchalarni ixcham, obrazli, hissiy jihatdan boy shaklda ifodalash;

- **VOHE** – Vatan obrazini ko‘rish, his qilish, tasvirlash, o‘zi uchun qayta kashf etish;
- **Evristik va kreativ metodlar** – muammoli fikrlash, qahramon ruhiyatini tushunish, “ichki chiroq”ni topish, mustaqil xulosa chiqarish;
- **“Ta’rif egasini toping”** – vatanparvarlikka oid tushunchalarni ta’riflar orqali anglash, mantiqiy fikrlashni faollashtirish;
- **V.A.T.A.N modeli** – badiiy matnni voqea, tasavvur, tafakkur, niyat va natija bosqichlarida o‘quvchi shaxsiy hayoti bilan bog‘lash.

Mazkur metodlar bir-birini to‘ldiradi, o‘qish savodxonligi darslarini yanada tizimli, mazmunan boy va tarbiyaviy jihatdan samarali tashkil etishga sharoit yaratadi.

Qo‘llanmaning tuzilishi

Metodik qo‘llanma kirish, asosiy boblar va xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalar, obykti va predmeti, nazariy-metodologik asoslari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Asosiy boblarda:

- Keys-stady metodi;
- Sinkveyn metodi;
- “Vatan obrazini his etish” metodi;
- Evristika metodi va kreativ yondashuvlar;
- “Ta’rif egasini toping” metodi;
- yangi innovatsion metod – V.A.T.A.N modeli

boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslari misolida batafsil ochib beriladi, har biriga mos hikoyalar, mashq va topshiriqlar, dars fragmentlari taqdim etiladi.

Xulosa qismida esa olib borilgan ishlar natijalari umumlashtirilib, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, ta’lim muassasalari, ilmiy tadqiqotchilar uchun metodik tavsiyalar shakllantiriladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalar:

1. Darsni mazmunli va ta'sirchan boshlash. Darsning boshlanishi o'quvchilar e'tiborini jalb etuvchi, ruhiy tayyorgarlikni ta'minlovchi bo'lishi lozim. Masalan, Vatan haqidagi qisqa she'r, hikmatli so'z yoki badiiy matndan parchalar orqali darsni ochish o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi.

2. O'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish. Har bir bola o'ziga xos dunyoqarash va qobiliyatga ega. Shu sababli badiiy matnlarni tahlil qilishda turli darajadagi topshiriqlardan foydalanish, sustroq o'quvchilarni ham faol jarayonga jalb etish samaradorlikni oshiradi.

3. O'yin va ijodiy faoliyatlardan foydalanish. Badiiy matn asosida sahnalashtirish, rolli o'yinlar, "Qahramon bo'lsam..." kabi mashqlar o'quvchilarning tasavvurini kengaytiradi va Vatan obrazini qalbiga singdiradi.

4. An'anaviy yondashuvdan chetga chiqish. Bir xil shakldagi darslar o'quvchilarni zeriktiradi. Shuning uchun matnni faqat o'qish bilan cheklanmasdan, uni rasmlar, munozaralar va ijodiy ishlanmalar bilan boyitish muhimdir.

5. O'quvchini faol subyektga aylantirish. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga undash, ularga matn mazmunini sharhlash, o'z munosabatini bildirish imkonini berish Vatanga bo'lgan munosabatni ongli ravishda shakllantiradi.

Bugungi globallashuv davrida o'sib kelayotgan avloddan keng dunyoqarash, mustaqil fikrlash va vatanparvarlik ruhi talab etiladi. Bunda badiiy matnlar eng ta'sirchan tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular orqali o'quvchilar qahramonlar taqdiri bilan yashaydi, Vatan tushunchasini his qiladi va ichki e'tiqod hosil qiladi.

Interfaol usullar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchining faolligini oshiradi, mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantiradi va bilimni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Natijada o'qish savodxonligi bilan bir qatorda, vatanparvarlik tuyg'usi ham izchil shakllanadi.

Interfaol usullarning afzalliklari:

- o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi;
- badiiy matnni chuqur anglashga yordam beradi;
- tarbiyaviy jihatdan kuchli ta'sir ko'rsatadi;
- Vatanga nisbatan mas'uliyat hissini mustahkamlaydi.



“Keys-study” texnologiyasi

Boshlang‘ich ta‘lim tizimida o‘qish savodxonligi o‘quvchilarning nutqiy rivoji, tafakkur kengligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qish jarayoni nafaqat matnni o‘qish va tushunish, balki uni tahlil qilish, xulosa chiqarish va hayotiy vaziyatlarga bog‘lash orqali yanada mazmunli tus oladi. Shu nuqtai nazardan, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, Keys-stady (Case study) texnologiyasi ta‘lim jarayonida samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Keys-stady metodi o‘quvchilarni real yoki real hayotga yaqin vaziyatlar asosida muammoli fikrlashga, vaziyatni tahlil qilishga va mustaqil yechim topishga o‘rgatadi. Bu esa ularning faolligini oshirib, mantiqiy va tanqidiy tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi. Quyida boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslari uchun mo‘ljallangan badiiy hikoya asosida Keys-stady texnologiyasi yordamida ilmiy tahlil keltiriladi.

HIKOYA: “SODIQLIK SINOVI”

Bahor fasli edi. Maktab hovlisida rang-barang gullar ochilib, mayin shamol daraxt novdalarini asta tebratardi. 3-sinf o‘quvchisi Kamol har doimgidek boshqalardan ertaroq maktabga keldi. U sinfni tartibga keltirib, daftarlarini joyiga qo‘ydi va bugungi darsga tayyor bo‘lib o‘tirdi. Bugun matematikadan nazorat ishi bo‘lishi kerak edi. Kamol bu darsga puxta tayyorlangan edi. Biroq uning sinfdoshi Sardor butunlay tayyorgarliksiz edi. Sardorning ko‘zlarida xavotir va qo‘rquv sezilib turardi. Dars boshlanishidan oldin Sardor Kamolga yaqinlashdi va sekin ovozda dedi:

— Kamol, iltimos, menga yordam ber. Hech narsani tushunmadim. Nazorat paytida biroz qarab olsam bo‘ladimi? Kamol bir zum jim qoldi. U do‘stiga yordam berishni xohlardi, biroq ayni paytda ustozining ishonchi va halollik masalasi ham uning xayolidan o‘tdi. Nazorat boshlandi. Ustoz sinfni kuzatib turardi. Sardor yana sekin pichirladi:

— Faqat bitta savolni ko‘rsat, iltimos... Kamol yuragi tez ura boshladi. U halollik eng muhim fazilat ekanini yaxshi bilardi. Oxir-oqibat u qat‘iy qarorga keldi:

— Kechir, Sardor, men nazorat paytida yordam bera olmayman. Lekin darsdan keyin senga tushuntiraman. Nazorat tugadi. Sardor past baho oldi, ammo Kamolning rostgo‘y va halol qarori uni chuqur o‘ylantirdi. Bir necha kundan so‘ng Sardor Kamol bilan birga mashq qilib, keyingi nazorat ishlarida yaxshi natijalarga erisha boshladi.

KEYS-STADY ASOSIDA TAHLIL

1. Muammo qo‘yilishi. Mazkur hikoyadagi asosiy muammo — do‘stlik va halollik o‘rtasidagi axloqiy tanlovdir. Kamol murakkab vaziyatga tushadi: u do‘stining iltimosini bajarish yoki o‘z vijdoni va maktab qoidalariga sodiq qolish masalasida qaror qabul qilishi kerak bo‘ladi.

Bu vaziyat o‘quvchilar uchun juda tanish bo‘lib, ular ham kundalik hayotda shunga

o'xshash holatlarga duch kelishlari mumkin. Shu sababli Keys-stady metodi orqali vaziyatni muhokama qilish ularning axloqiy tafakkurini shakllantirishda samarali bo'ladi.

2. Vaziyatni tahlil qilish. Keys-stady metodida vaziyat quyidagi savollar asosida chuqur o'rganiladi:

- Kamol qanday muammoni boshidan kechirdi?
- U qanday tanlov oldida qoldi?
- Agar u Sardorga yordam berganida nima bo'lardi?
- Kamolning qarori to'g'rimi?
- Sardorning xatti-harakatlari qanday baholanishi mumkin?

Bu savollar orqali o'quvchilar voqeani tahlil qilishga, sabablari va oqibatlarini aniqlashga o'rganadi. Kamolning halol yo'lni tanlashi uning shaxs sifatida yetukligini namoyon etadi. O'quvchilar quyidagi variantlarni ilgari surishlari mumkin:

1. Sardorga nazorat paytida yordam berish
2. Umuman yordam bermaslik
3. Nazoratdan so'ng birgalikda mashq qilish

Muammoli vaziyatni tahlil qilish natijasida uchinchi variant eng maqbul yechim sifatida baholanadi. Bu yechim axloqiy me'yorlarga zid bo'lmagan holda do'stlikni saqlab qolish imkonini beradi. Ushbu Keys-stady orqali o'quvchilarda bir nechta ko'nikmalar shakllanadi. Halollik va rostgo'ylik tushunchasi mustahkamlanadi. Axloqiy qadriyatlar rivojlanadi. Mustaqil qaror qabul qilish malakasi oshadi. Ijtimoiy mas'uliyat hissi kuchayadi. Shu tariqa, hikoya nafaqat badiiy asar sifatida, balki tarbiyaviy vosita sifatida ham xizmat qiladi. Mazkur Keys-stady mashg'ulotini tashkil etish jarayoni didaktik tamoyillarga asoslangan holda izchil bosqichlar orqali amalga oshiriladi. Har bir bosqich o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish va muammoli vaziyatni chuqur anglashga xizmat qiladi.

1. Motivatsiya bosqichi. Ushbu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarda muammoli vaziyatga nisbatan qiziqish va ehtiyojni shakllantirish maqsadida yo'naltiruvchi savol beradi. Jumladan: "Agar siz Kamol o'rnida bo'lsangiz, qanday qaror qabul qilardingiz?" mazmunidagi savol orqali o'quvchilarning shaxsiy tajribasi faollashtiriladi hamda ularning reflektiv fikrlash mexanizmlari ishga tushiriladi. Natijada o'quvchilar muammoni shaxsiy nuqtai nazardan idrok etishga undaladi.

2. Hikoyani idrok etish bosqichi. Mazkur bosqichda badiiy matn ifodali, mantiqiy urg'ularni saqlagan holda o'qib eshittiriladi yoki rollarga bo'lib ijro etiladi. Bu jarayon o'quvchilarning eshitish, tushunish va mazmunni idrok etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Hikoyaning mazmuniy qatlamlari o'quvchilar ongida tizimli ravishda shakllanib, voqealar ketma-ketligi aniq tasavvur qilinadi.

3. Guruhlarda muhokama bosqichi. Ushbu bosqichda o'quvchilar kichik guruhlariga ajratilib, muammoli vaziyat tahliliga jalb etiladi. Guruhiy muhokama jarayonida har bir ishtirokchi o'z fikrini erkin bayon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa kommunikativ kompetensiya, jamoada ishlash ko'nikmasi hamda tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga

xizmat qiladi. Guruhlar vaziyatni sabab-oqibat munosabatlari asosida tahlil qiladilar va muqobil yechimlarni ishlab chiqadilar.

4. Taqdimot bosqichi. Har bir guruh o‘z muhokamasi natijasida shakllangan xulosalarni og‘zaki yoki yozma shaklda taqdim etadi. Taqdimot jarayoni o‘quvchilarning nutq madaniyati, mantiqiy bayon qilish mahorati va ijtimoiy faolligini oshiradi. Ushbu bosqichda aniqlik, dalillilik va asoslanganlik asosiy mezon sifatida qaraladi.

5. Yakuniy umumlashtirish bosqichi. Mashg‘ulotning yakuniy qismida o‘qituvchi guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlarni umumlashtiradi hamda pedagogik xulosa chiqaradi. Ushbu bosqichda muammoning eng maqbul yechimi aniqlanib, uning axloqiy va tarbiyaviy ahamiyati asoslab beriladi. O‘qituvchi tomonidan berilgan yakuniy baho o‘quvchilarda to‘g‘ri xulosa chiqarish va tanqidiy yondashuvni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Keys-stady texnologiyasi konstruktiv yondashuvga tayangan holda o‘quvchini faol subyekt sifatida shakllantiradi. Bu metod o‘quvchilarni faqat tayyor bilimni qabul qiluvchi emas, balki uni mustaqil ravishda tahlil qiluvchi shaxsga aylantiradi. Boshlang‘ich sinfda ushbu metodni qo‘llash orqali kognitiv jarayonlar faollashadi, mantiqiy tafakkur va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. “Sodiqlik sinovi” hikoyasi asosida ishlab chiqilgan Keys-stady tahlili boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida samarali pedagogik vosita hisoblanadi. U o‘quvchilarning nafaqat matnni tushunish qobiliyatini, balki axloqiy ongini ham rivojlantiradi. Keys-stady metodining ta’lim jarayonida qo‘llanishi o‘quvchilarni mustaqil fikrlovchi, mas’uliyatli va halol inson sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi. Natijada ta’lim jarayoni nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirgan holda, shaxs kamolotiga yo‘naltirilgan tizimga aylanadi.





Sinkveyn metodi - o‘qish va yozish asosida fikrlarni rivojlantirish dasturi

Boshlang‘ich ta‘lim bosqichida o‘qish savodxonligini shakllantirish jarayoni nafaqat texnik o‘qish malakalarini rivojlantirish, balki o‘quvchilarda ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni qaror toptirishni ham nazarda tutadi. Ayniqsa, badiiy matnlar vositasida vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirish boshlang‘ich sinf o‘quvchisining shaxs sifatida shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan Sinkveyn metodi ijodiy tafakkur, hissiy idrok va mantiqiy umumlashtirishni uyg‘unlashtiruvchi samarali pedagogik texnologiya sifatida e‘tirof etiladi. Mazkur metod o‘quvchilarga o‘qilgan badiiy asarni chuqur tahlil qilish, undagi vatanparvarlik g‘oyalarini anglash va qisqa, ixcham, ammo mazmunli shaklda ifodalash imkonini beradi. Bu esa ularning nutq faoliyati, munosabat bildirish va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Sinkveyn (fransuzcha “besh qator”) – bu o‘rganilayotgan mavzuni besh bosqich orqali qisqa, sintetik va emotsional jihatdan boy shaklda ifodalash usulidir. U badiiy matn asosida o‘quvchining shaxsiy munosabatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Ayniqsa, vatanparvarlik kabi murakkab tuyg‘ularni bolalar idrokiga mos tarzda singdirishda mazkur metodning ahamiyati beqiyosdir. Sinkveyn tuzish quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi: 1-bosqich: Mavzu bir so‘z bilan ifodalanadi (odatda ot). 2-bosqich: Mavzu ikki sifat bilan ochib beriladi. 3-bosqich: Mavzu doirasidagi harakat uchta fe‘l orqali ifodalanadi. 4-bosqich: Mavzuga munosabatni bildiruvchi to‘rt so‘zli fikr yoziladi. 5-bosqich: Mavzu mohiyatini umumlashtiruvchi gap yoziladi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida "Vatan", "Ona yurt", "Bayroq", "Qahramon", "Mustaqillik" kabi mavzulardagi badiiy matnlar asosida vatanparvarlik tuyg‘usi shakllantiriladi. Sinkveyn ushbu tushunchalarni o‘quvchi ongida emotsional va semantik jihatdan mustahkamlaydi. **Vatan mavzusida namunaviy Sinkveyn:** Vatan, muqaddas, aziz, asraydi, birlashtiradi, ilhomlantiradi, yuragim sening nomingda, ona yurtga sadoqat. Bu namunada o‘quvchi Vatan tushunchasiga nafaqat ta‘rif, balki shaxsiy munosabat ham bildirganini ko‘rish mumkin.

“Bayroqni sevgan bola”

Akmal ismli 8 yoshli bola maktab yo‘lagida osilgan O‘zbekiston bayrog‘iga har kuni mehr bilan boqardi. U bobosidan bayroq ranglari nimani anglatishini so‘rab, diqqat bilan tinglardi. Bobosi unga ko‘k osmon — tinchlik, oq rang — poklik, yashil esa hayotni ifodalashini tushuntirdi. Akmal shu kundan boshlab maktabdagi bayroqni har tongda tozalashni o‘ziga vazifa qilib oldi.

Bir kuni maktabda “Vatan haftaligi” o‘tkazildi. Akmal bayroq haqida she‘r o‘qidi va uni hayajon bilan ifodaladi. O‘qituvchisi uning chin dildan gapirayotganini sezib, uni barcha

o‘quvchilarga ibrat qilib ko‘rsatdi. Bu holat sinfdagi boshqa bolalarda ham Vatanga nisbatan mehr va sadoqat hissini uyg‘otdi.

Hikoya asosida sinkveyn: Bayroq, muqaddas, ulug‘, hilpiraydi, birlashtiradi, ruhlantiradi, g‘ururim ramzi bo‘lib turadi, davlat timsoli

Sinkveyn metodini vatanparvarlik mavzusiga moslashtirish quyidagi pedagogik samaralarni ta‘minlaydi:

- ✓ O‘quvchilarning badiiy matnni idrok etish darajasi oshadi.
- ✓ Mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuv kuchayadi.
- ✓ Emotsional-irodaviy sifatlar rivojlanadi.
- ✓ Vatan tushunchasi ichki qadriyatga aylanadi.
- ✓ Nutq madaniyati va uslubiy aniqlik ta‘minlanadi.

Mualliflik yondashuviga ko‘ra, Sinkveyn metodini o‘qish savodxonligi darslarida tizimli qo‘llash orqali o‘quvchilarda faqatgina bilim emas, balki barqaror fuqarolik pozitsiyasi ham shakllanadi. Bu esa ta‘lim jarayonining tarbiyaviy funksiyasini kuchaytiradi. Har bir badiiy matndan so‘ng Sinkveyn tuzish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar yozgan Sinkveynlar sinf doskasida muhokama qilinadi. Eng mazmunli ishlardan "Vatanparvarlik albomi" tuziladi. Ota-onalar bilan hamkorlikda uy topshirig‘i shaklida davom ettiriladi. Fanlararo integratsiya orqali (ona tili, musiqiy tarbiya) boyitiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matnlar orqali vatanparvarlik tuyg‘usini rivojlantirishda Sinkveyn metodi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘quvchining shaxsiy qarashlari, his-tuyg‘ulari va munosabatini obrazli, ixcham va ta‘sirchan shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Ilmiy asosda tashkil etilgan Sinkveyn texnologiyasi o‘quv faoliyatini faollashtiradi, ijodiy tafakkurni rag‘batlantiradi va barkamol shaxs tarbiyasiga zamin yaratadi.

Mazkur metodni tizimli qo‘llash orqali vatanparvar, ongli va mas‘uliyatli yosh avlodni tarbiyalash mumkin bo‘ladi.

Bosqich	Sinkveyn tuzish talabi	Namuna (Vatanparvarlik mavzusi asosida)
1- bosqich	Mavzu bir soʻz bilan ifodalanadi (odatda ot tanlanadi)	Vatan
2- bosqich	Mavzu ikkita sifat bilan ifodalanadi (odatda 2 ta sifat tanlanadi)	Muqaddas, aziz
3- bosqich	Mavzu doirasida tashkil etiladigan xatti-harakat uchta soʻz bilan ifodalanadi (3 ta feʼl yoki ravishdosh yoziladi)	Asraydi, birlashtiradi, ilhomlantiradi
4- bosqich	Mavzuga nisbatan munosabatni anglatadigan toʻrtta soʻzdan iborat fikr yoziladi	Yuragim sen uchun uradi
5- bosqich	Mavzu mohiyatini takrorlovchi, maʼnosi unga yaqin boʻlgan bitta gap yoziladi (sinonim asosida)	Ona yurtga cheksiz sadoqat



Boshlang'ich sinf uchun soddalashtirilgan namunaviy jadval

Bosqich	Topshiriq mazmuni	O'quvchi javobi
1	Bitta ot yozing	Bayroq
2	Ikkita sifat yozing	Ulug', muqaddas
3	Uchta fe'l yozing	Hilpiraydi, himoyalaydi, birlashtiradi
4	4 so'zli gap tuzing	Bayroq qalbimda iftixor uyg'otadi
5	Sinonim asosida xulosa yozing	Vatan ramziga sadoqat

Ushbu jadval Sinkveyn metodini boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tushunarli va amaliy shaklda qo'llash imkonini beradi hamda ularning vatanparvarlik tuyg'usini badiiy matn orqali bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.





"Vatan obrazini his etish" metodi

Vatan obrazini his etish (VOHE) metodi boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida badiiy matnlarni o'qitish jarayonini mazmunan boyitishga, o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini tizimli va barqaror shakllantirishga xizmat qiluvchi zamonaviy pedagogik yondashuv hisoblanadi. Ushbu metodning asosiy maqsadi o'quvchida "Vatan" tushunchasini faqat abstrakt, nazariy yoki sloganlar orqali emas, balki obrazli idrok, hissiy kechinma va shaxsiy munosabat asosida chuqur anglatishdir. Metod ta'lim va tarbiya jarayonining uyg'unligini ta'minlab, o'quvchini faol subyekt sifatida shakllantirishga yo'naltirilgan. VOHE metodining nazariy asoslari shundan iboratki, boshlang'ich yoshdagi bolalarda bilimni qabul qilish jarayoni asosan emotsional-idrokiy yo'l bilan amalga oshadi. Demak, ular uchun Vatan haqidagi tushuncha faqat geografik hudud yoki siyosiy birlik sifatida emas, balki ona, tabiat, makon, xotira, mehr va xavfsizlik timsoli sifatida idrok etiladi. Shu sababli VOHE metodi bolalarning psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, vatanparvarlik g'oyasini tabiiy jarayon sifatida shakllantirishni ko'zda tutadi. Metodning mohiyati uch asosiy komponentga tayangan holda amalga oshiriladi. Birinchisi obrazli idrok bo'lib, bunda o'quvchi matnda tasvirlangan Vatan manzarasini ko'z oldiga keltiradi, ranglar, tovushlar va holatlar orqali uni jonlantiradi. Ikkinchisi hissiy refleksiya bo'lib, o'quvchi o'qilgan matn asosida ichki kechinmalarini anglaydi va ularga baho beradi. Uchinchisi esa shaxsiy pozitsiya bo'lib, bunda bola Vatanga munosabatini ongli ravishda ifodalaydi va o'zini mazkur obrazga daxldor shaxs sifatida ko'ra boshlaydi. VOHE metodi besh bosqich asosida amalga oshiriladi va har bir bosqich o'ziga xos didaktik vazifani bajaradi. Birinchi bosqich – Vatan obrazini kashf etish bosqichidir. Bu jarayonda o'qituvchi badiiy matndan Vatanga oid parchaning ifodali o'qilishini ta'minlaydi. Ifodali o'qish jarayonida ohang, pauza, urg'u va his-hayajon muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilar matndan Vatan bilan bog'liq so'z va iboralarni aniqlash orqali mavzuga yo'naltiriladi. Bu jarayon ularning kuzatuvchanligini rivojlantiradi va asosiy g'oyani anglashga tayyorlaydi. Ikkinchi bosqich – obrazni tasvirlash bosqichi bo'lib, bunda o'quvchilar topilgan so'zlar asosida Vatan obrazini tasavvur qiladi. Masalan, Vatan qanday ranglarda namoyon bo'ladi, u qanday kayfiyat uyg'otadi, sokinmi yoki quvonchlimi, kengmi yoki bag'rikengmi, degan savollar orqali bolalarning tasavvur doirasi kengaytiriladi. Ushbu jarayonda verbal tasvir bilan bir qatorda og'zaki ifoda, rasm chizish yoki qiyosiy taqqoslash usullari ham qo'llanishi mumkin. Uchinchi bosqich – hissiy mulohaza bosqichi bo'lib, bunda o'quvchilar matn mazmuniga nisbatan ichki munosabat bildiradi. Masalan, "Agar Vatan gapira olsa, u nimani aytardi?", "Sen Vatanning qaysi joyini ko'proq sevasan?" kabi savollar bolalar tafakkurini faollashtiradi, ularni mushohada yuritishga undaydi. Bu bosqichda hissiy idrokning

rivojlanishi orqali o'quvchilarda empatiya va ma'naviy sezgirlik shakllanadi. To'rtinchi bosqich – shaxsiy pozitsiya bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda har bir o'quvchi "Men Vatanim uchun..." jumlasini davom ettiradi. Bu jumla bolaning Vatanga munosabatini amaliy va ongli harakat bilan bog'lashga yordam beradi. Natijada Vatan tushunchasi passiv idrok emas, balki faol fuqarolik pozitsiyasi sifatida qaror topadi. Beshinchi bosqich – ijodiy ifoda bosqichi bo'lib, bunda o'quvchilar mini-matn, she'r, bayon yoki kichik hikoya shaklida o'z fikrini ifodalaydi. Bu jarayon ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish bilan birga, ijodiy tafakkurni ham faollashtiradi. Har bir o'quvchi "Men Vatanim uchun..." jumlasini davom ettiradi. O'quvchilar qisqa matn, mini-she'r yoki 3-4 gapdan iborat bayon yozadi. Metodni amaliy qo'llash jarayonida "Ona yurt qo'ynida" hikoyasi asos qilib olinadi. Hikoyada kichkina Jamshidning ona yurtiga bo'lgan mehr-muhabbati, uning tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabati va mas'uliyat hissi yorqin tasvirlanadi. Jamshidning daladagi chiqindilarni yig'ishtirishi, do'stlarini ham shunga undashi uning Vatanparvarlik pozitsiyasini namoyon etadi. Bu obraz orqali o'quvchilar Vatanni sevish faqat so'z bilan emas, balki amaliy harakat orqali amalga oshirilishini anglaydi.

"Ona yurt qo'ynida"

Hikoyada kichkina Jamshid qishlog'idagi tog'lar, dalalar va buloqlarni mehr bilan tasvirlaydi. U har tong maktabga ketayotib, yashil dalalarga boqib: "Bu mening Vatanim, men uni asrashim kerak", deb o'ylaydi. Jamshid bir kuni dalada sochilib yotgan chiqindilarni ko'rib, ularni yig'ishtiradi va do'stlarini ham shu ishga undaydi. U Vatanni sevish faqat so'z bilan emas, amalda bo'lishini anglaydi.

O'qituvchi savol beradi: – Matnda Vatan qaysi so'zlar bilan ifodalangan? O'quvchi javoblari: tog'lar, dalalar, buloq, ona yurt. Keyingi bosqichda o'qituvchi tomonidan savollar beriladi: Vatan obrazi qanday? - Yashil, sokin, mehrlil. Savol: Jamshidning xatti-harakati sizda qanday tuyg'u uyg'otdi? Javob: Faxr, mehr, mas'uliyat. O'quvchi yozadi: "Men Vatanim uchun atrofni toza saqlayman." Mini-matn namunasi: "Vatanim — mening baxtim. Uning har bir daraxti men uchun aziz. Men uni asrayman va sevaman." VOHE metodi asosida o'tkazilgan darslar o'quvchilarning nafaqat bilim doirasini kengaytiradi, balki shaxsiy rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Metod bolalarda milliy qadriyatlarga hurmat, ekologik madaniyat, fuqarolik mas'uliyati va ijtimoiy faoliyatni shakllantiradi. Vatanparvarlik hissi sun'iy targ'ibot emas, balki ichki ehtiyoj sifatida qaror topadi.


Metodning pedagogik afzalliklari shundan iboratki, u o'quvchining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga oladi, mashg'ulotlarni interfaol, mazmunli va hayotga yaqin tarzda tashkil etishga imkon beradi. Shuningdek, VOHE metodi badiiy matnni chuqur tahlil qilish, o'qish tezligi va ifodadorligini oshirish, fikrni erkin bayon

etish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mualliflik xulosasiga ko'ra, VOHE metodi boshlang'ich ta'lim tizimida vatanparvarlik tarbiyasining samarali vositasi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu metod orqali o'quvchi Vatan tushunchasini faqat darslik sahifalarida emas, balki o'z qalbida his eta boshlaydi. U Vatanni sevish, uni asrash va unga sodiq bo'lishni shaxsiy mas'uliyat sifatida qabul qiladi. Bu esa kelajakda ongli, vatanparvar va ijtimoiy faol fuqaroni tarbiyalashda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. VOHE metodini tizimli va izchil qo'llash orqali o'quvchilar ongida Vatanga sadoqat, milliy g'urur va ijtimoiy mas'uliyat hissi mustahkamlanadi. Bu metod nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki jamiyatning ma'naviy rivojiga ham munosib hissa qo'shadi.

Metodning pedagogik afzalliklari:

- ✓ Vatanparvarlik hissi sun'iy emas, tabiiy shakllanadi.
- ✓ Badiiy matn chuqurroq anglanadi.
- ✓ O'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat rivojlanadi.
- ✓ Nutq va tasavvur uyg'un rivojlanadi.
- ✓ Ta'lim va tarbiya birligi ta'minlanadi.

Metod boshlang'ich sinf o'quvchisining shaxsiy dunyosiga Vatan tushunchasini sezgi, his va ong orqali singdiradi. Bu metod o'quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki Vatanga befarq bo'lmagan ongli fuqaro sifatida shakllantiradi. Badiiy matn vositasida vatanparvarlikni rivojlantirishning ushbu yondashuvi ta'lim jarayonida samarali va barqaror natija beradi. Mazkur metodni tizimli qo'llash orqali o'quvchilar qalbida Vatanga sadoqat, milliy g'urur va ijtimoiy mas'uliyat hissi izchil rivojlanadi.





Evristika metodi – badiiy matnni tushunishda muammoli tafakkurni shakllantirish vositasi

Zamonaviy ta'lim tizimida badiiy matnlarni o'qitish jarayoni nafaqat asar mazmunini tushuntirish, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va ijodiy yondashuvni shakllantirishni ham nazarda tutadi. An'anaviy yondashuvda o'qituvchi tomonidan berilgan tayyor talqin asosida asarni o'rganish ko'proq ustuvor bo'lgan bo'lsa, hozirgi pedagogik paradigma o'quvchini faol subyekt sifatida qarashni talab etadi. Shu nuqtai nazardan evristik va kreativ metodlar badiiy ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda.

Evristika (yunoncha "heurisko" – topaman, izlayman) metodi ta'lim jarayonida muammoli vaziyat yaratish va uni mantiqiy tafakkur orqali hal etishga yo'naltirilgan usul bo'lib, o'quvchining fikrlash jarayonini faollashtirishga xizmat qiladi. Ushbu metodning asosiy mohiyati shundan iboratki, o'qituvchi tayyor bilimni bevosita bermaydi, balki savol-javob, muammo qo'yish, qiyoslash, tahlil qilish orqali o'quvchini bilimni mustaqil ravishda kashf etishga undaydi. Badiiy matnlarni o'rgatishda evristik metod o'quvchining asar voqealariga tanqidiy yondashuvi, qahramonlar xarakterini chuqur tahlil qilishi hamda muallif g'oyasini anglashiga keng imkon yaratadi. Evristik suhbat dars jarayonida dialogik muloqotga asoslanadi. Bunda o'qituvchi tomonidan berilgan savollar o'quvchini oddiy qayta hikoyalashdan ko'ra murakkab fikrlashga, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga, badiiy obraz mohiyatini ochib berishga yo'naltiriladi. Masalan, badiiy asardagi qahramon xatti-harakatlarini baholash jarayonida "Nima uchun u shunday yo'l tutdi?", "Bu harakatning sababi nimada?", "Agar siz uning o'rnida bo'lsangiz, qanday yo'l tutardingiz?" kabi savollar o'quvchini mushohada yuritishga va shaxsiy pozitsiyasini shakllantirishga undaydi. Natijada o'quvchi asarni yuzaki o'rganishdan chiqib, uning ichki mazmuni va g'oyaviy qatlamiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy matnlarni tahlil qilishda evristik metod fanlararo integratsiyani ham ta'minlaydi. Chunki savollar faqat adabiy tahlil doirasida qolmay, tarix, axloqshunoslik, huquq, psixologiya va hatto sotsiologik jihatlar bilan bog'lanishi mumkin. Masalan, tarixiy romanlarni o'rganishda qahramonning qarori va davr sharoiti o'rtasidagi munosabatni aniqlash orqali o'quvchida tarixiy tafakkur ham shakllanadi. Bu esa ta'lim jarayonining kompleks xarakter kasb etishiga olib keladi.

Brenrayting (brainwriting) metodi esa evristik yondashuvni yozma faoliyat orqali boyitadi. Ushbu metodda o'quvchilarning fikrlari yozma shaklda erkin ifodalanadi va bunda imlo yoki uslubiy xatolarga e'tibor qaratilmaydi. Asosiy maqsad – o'quvchining ichki dunyosini ochish, uning badiiy asarga nisbatan shaxsiy munosabatini aniqlash va mustaqil fikrlashga rag'batlantirishdir. Badiiy matn asosida berilgan savol yoki muammo yuzasidan yozilgan fikrlar keyinchalik umumlashtiriladi va muhokama

qilinadi. Bu jarayon o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish, fikrni mantiqiy izchillikda bayon etish malakasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Brenrayting metodining afzalligi shundaki, u og'zaki javob berishga qiynaladigan, tortinchoq yoki passiv o'quvchilarni ham faol jarayonga jalb etadi. Chunki ular o'z fikrini yozma shaklda erkin ifodalash imkoniga ega bo'ladi. Shu bilan birga, badiiy matn asosida yozilgan fikrlarning xilma-xilligi muammoni har tomonlama ko'rib chiqish va turli nuqtai nazarlarni solishtirish imkonini yaratadi. Natijada o'quvchilar tafakkurida tahliliy yondashuv va plural fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. "Yopiq maktub" metodi esa o'quvchilarda empatiya, ya'ni boshqalarning hissiyotlarini tushunish va his etish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu metodda o'quvchilar badiiy asardagi ma'lum qahramon nomidan maktub yozadilar va ushbu maktubda uning kechinmalari, iztiroblari, pushaymonlari yoki orzu-intilishlarini bayon etadilar. Muhimi, mazkur maktublar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi, bu esa o'quvchiga ichki kechinmalarini erkin ifoda etish imkonini beradi. Shunday qilib, badiiy asar faqat matn sifatida emas, balki jonli hissiy tajriba sifatida qabul qilinadi. Mazkur metod orqali o'quvchilar qahramon ruhiyatiga kiradi, uning ichki dunyosini anglaydi va muayyan voqealarga nisbatan hissiy munosabatni shakllantiradi. Bu esa axloqiy tarbiya, shaxsiy mas'uliyatni his etish, ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmaslik kabi sifatning rivojlanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, murakkab xarakterli obrazlar ishtirok etgan asarlarni tahlil qilishda "Yopiq maktub" metodi yuqori samaradorlikka ega. "Shlyapadagi hislar" texnologiyasi "Yopiq maktub" metodining mantiqiy davomi bo'lib, anonimlik tamoyiliga asoslanadi. Bu usulda o'quvchilar asar qahramoni nomidan shaxsiy his-tuyg'ularini yozadilar va ularni shlyapaga joylaydilar. Keyinchalik varaqlar aralashtirilib, boshqa o'quvchilar tomonidan o'qiladi va mazmun asosida xulosa qilinadi. Bunda muhim jihat shundaki, muallif kim ekanligi noma'lum bo'lgani uchun o'quvchilar o'z hislarini yanada erkin ifoda etadilar. Bu esa shaxsiy refleksiya va ochiq muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Kreativ yondashuvning yana bir muhim ko'rinishi "Tugallanmagan rasm" metodidir. Bu metod E.P. Torrens tomonidan ishlab chiqilgan kreativlik testlariga asoslanib, o'quvchilarning tasavvur va fantaziya imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Badiiy adabiyot darslarida ushbu metoddan foydalanish orqali o'quvchilar noaniq shakllar asosida yangi obrazlar yaratadilar, ularni badiiy matn bilan bog'laydilar va mazmuniy izoh beradilar. Natijada vizual tafakkur, ijodiy tasvirlash va estetik idrok rivojlanadi.

Kreativlik tushunchasi shaxsning yangicha fikrlash, noodatiy g'oyalar yaratish va muammoni nostandart yo'l bilan hal etish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Badiiy ta'lim jarayonida kreativlik o'quvchining asarga shaxsiy munosabati, muallif g'oyasiga mustaqil yondashuvi va obrazli tafakkurining rivojlanishida namoyon bo'ladi. Shuning

uchun ham zamonaviy darslarda kreativ metodlarni qo'llash pedagogik zarurat sifatida qaraladi.

"So'nmas chiroq"

Qadimiy bir qishloqda Rustam ismli yigit yashardi. U bolaligidan bilimga chanqoq, ammo o'ta tortinchoq va o'z kuchiga ishonchi sust inson edi. Otasi erta vafot etgan, onasi esa kasalmand bo'lib, Rustam butun og'ir yukni yolg'iz o'zi ko'tarardi. U kunduzlari dala ishlarida mehnat qilar, kechqurunlari esa yog'och ustaxonasida kichik buyumlar yasab, kun kechirardi. Rustamning eng katta orzusi – shahar universitetida o'qish edi. Ammo qashshoqlik va o'ziga ishonchsizlik uni har safar ortga qaytarar, "Baribir menga o'xshagan oddiy yigit bu darajaga yetolmaydi", degan fikr uni tark etmasdi. Bir kuni qishloqqa yosh o'qituvchi Dilshod kelib, Rustamning ishlarini ko'rib, uning intilishida katta salohiyat borligini sezdi.

– Sen faqat qo'ling bilan emas, tafakkuring bilan ham ish qilasan, – dedi u. – Agar xohlasang, men seni imtihonlarga tayyorlayman.

Rustam avvaliga ikkilanib qoldi. Qo'rquv, ikkilanish va muvaffaqiyatsizlikdan xavotir uni qiynardi. Shunga qaramay, ichidagi nimadir uni rozi bo'lishga undadi. Shu kundan boshlab Rustam har oqshom Dilshod bilan shug'ullandi. U ilm o'rganar ekan, asta-sekin o'ziga bo'lgan ishonchi mustahkamlanib bordi. Imtihon kuni kelganda Rustamning yuragi qattiq urardi. U o'zini sinov maydoniga kirar ekan, go'yo hayoti taqdirini belgilovchi yo'lga qadam qo'yayotgandek his qildi. Natijalar e'lon qilinganda esa Rustam universitetga qabul qilinganini bildi. Bu xabar nafaqat uning, balki butun qishloqning quvonchiga sabab bo'ldi. Yillar o'tib, Rustam muvaffaqiyatli muhandisga aylandi. U o'z qishlog'iga qaytib, yoshlar uchun bepul ta'lim markazi ochdi va devoriga shunday so'zlarni yozdi: "Inson qalbidagi ishonch so'nmasa, uning yo'li ham so'nmaydi." Bu chiroq – Rustamning ichki ishonchi edi. U so'nmagan ekan, hayot yo'li ham nurli bo'ldi.

1. Evristik metod asosida tahlil

Mazkur hikoyani evristik metod asosida tahlil qilishda o'quvchilarga muammoli vaziyat taqdim etiladi va savollar orqali mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltiriladi.

1. Rustam nega dastlab o'z orzusidan voz kechishga moyil edi va uni qanday omillar o'zgartirdi?
2. Rustamning o'ziga ishonchsizligi qaysi omillar bilan bog'liq?
3. Qashshoqlik inson tafakkuriga qanday psixologik ta'sir ko'rsatadi?

4. Dilshodning nutqi Rustam hayotida qanday burilish yasadi?
5. Agar Rustam yordamni rad etganida, hikoya qanday yakun topardi?
6. "Ichki chiroq" timsoli nimani anglatadi?

Bu savollar asosida o'quvchilar Rustamning ruhiy kechinmalarini, ichki kurashini va shaxsiy rivojlanishini tahlil qiladilar. Natijada hikoya orqali shaxsiy mas'uliyat, iroda va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning ahamiyati anglanadi.

2. Brenrayting metodi asosida tahlil

O'quvchilarga quyidagi yozma topshiriq beriladi: "Rustamning hayot yo'li sizga qanday ruhiy ta'sir ko'rsatdi? Uning o'rnida bo'lsangiz, qaysi bosqichda taslim bo'lishingiz mumkin edi va nega?". O'quvchilar ushbu savol yuzasidan erkin fikr bildiradilar. Imlo xatolariga e'tibor qaratilmaydi. Bu jarayonda shaxsiy refleksiya kuchayadi, hayotiy holatlarga tanqidiy yondashuv yuzaga keladi, yozma tafakkur rivojlanadi.

3. "Yopiq maktub" metodi asosida tahlil

O'quvchilardan Rustam nomidan eski Rustamga (o'tmishdagi o'ziga) maktub yozish topshiriladi. Namuna: "Aziz Rustam! Sen qo'rqqoq emas eding, sen faqat o'zingni yetarlicha tanimagan eding. Har safar chekinmoqchi bo'lganingda, ichingdagi tovush seni oldinga undadi."

Umuman olganda, evristik va kreativ metodlar badiiy matnlarni o'qitishda quyidagi pedagogik natijalarga erishishni ta'minlaydi: o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish, og'zaki va yozma nutq madaniyatini rivojlantirish, obrazni chuqur tahlil qilish ko'nikmasini hosil qilish, fanlararo aloqalarni mustahkamlash, shaxsiy va axloqiy tarbiyani kuchaytirish, ijodiy qobiliyatni faollashtirish hamda o'quvchini ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish.

Shu boisdan badiiy ta'lim jarayonida mazkur metodlardan kompleks va tizimli foydalanish o'qituvchining metodik mahoratini namoyon etuvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Evristik va kreativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar esa o'quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki fikrlovchi, tahlil qiluvchi va ijodkor shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.



“Ta’rif egasini toping” Metodi

“Ta’rif egasini toping” usuli – o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini, kuzatuvchanligini, tahliliy yondashuvini va xotirasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlardan biridir. Ushbu metod odatda ta’rif va unga mos tushunchani aniqlashga asoslanadi. Ammo uni boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matnlar orqali vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda ham samarali qo‘llash mumkin. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yosh jihatidan hissiyotga beriluvchan, obrazlarni tez qabul qiladigan va muhit ta’sirida shakllanadigan shaxslar bo‘lib, aynan shu davrda ularning qalbiga “Vatan”, “yurt”, “ona zamin”, “bayroq”, “mustaqillik” kabi tushunchalarni singdirish muhim hisoblanadi. “Ta’rif egasini toping” metodi ayni shu jarayonda o‘yinga asoslangan, qiziqarli va ongli faoliyatni ta’minlaydi.

Metodni mavzuga mos holda qo‘llash jarayoni

Mavzu: Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matn o‘qitish orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish.

Masalan, 2–3-sinflar uchun mo‘ljallangan “Mening Vatanim”, “O‘zbekiston – mening yurtim”, “Vatan haqida she’r”, “Ona zamin” kabi badiiy matnlardan biri.

Darsning borishi:

O‘qituvchi dars boshida o‘quvchilarga Vatan haqidagi qisqa badiiy matnni ifodali o‘qib beradi yoki o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qiydi. Matnda quyidagi tushunchalar aks etgan bo‘lishi maqsadga muvofiq: bayroq, poytaxt, tabiat, xalq, tarix, mustaqillik, tinchlik, milliy qadriyatlar. So‘ng o‘qituvchi “Ta’rif egasini toping” metodini joriy qiladi.

Amaliy qo‘llash shakli

Jihozlar:

- 3 ta katta vatman
- rangli kartochkalar
- rasmlar yoki smayliklar
- magnit yoki yopishtirgichlar

Tayyorlov bosqichi:

Vatmanlarga quyidagi yoʻnalishlar yoziladi: “Vatan timsollari”, “Vatanga mehr belgisi”, “Vatanparvar bola”. Kichik kartochkalarga esa taʼriflar yoziladi.

Masalan:

- ✓ “U har doim maktabda bayroqni hurmat bilan koʻtaradi.”
- ✓ “Bu ona zamin ramzi boʻlib, unda ranglar mujassam.”
- ✓ “U yurt tinchligi uchun mehnat qiladi.”
- ✓ “U davlatning mustaqil belgisi hisoblanadi.”
- ✓ “U Vatanga muhabbat bilan qaraydi.”

Boshqa kartochkalarga esa tushunchalar yoziladi: Bayroq, gerb, vatan, mustaqillik, vatanparvar bola, ona yurt.

Oʻquvchilar 3 guruhga boʻlinadi. Har bir guruhga taʼriflar va tushunchalar tarqatiladi. Ular quyidagi vazifani bajaradilar:

- Taʼrifni oʻqib chiqadilar
- Kim yoki nima haqida ekanini aniqlaydilar
- Toʻgʻri javobni mos vatmanga joylashtiradilar

Masalan:

“U davlatning mustaqil belgisi hisoblanadi” → Bayroq
“U har doim yurtini sevadi, unga mehr qoʻyadi” → Vatanparvar bola

Bu jarayonda bolalar nafaqat tushunchani topadilar, balki ongida uning mazmuni mustahkamlanadi. Mazkur metod orqali oʻquvchilarda quyidagi koʻnikma va fazilatlar shakllanadi: Vatanga muhabbat hissi, milliy gʻurur, fuqarolik masʼuliyati, jamoada ishlash madaniyati, tahlil va solishtirish qobiliyati, nutq faoliyati. Badiiy matn asosida ish olib borilgani sababli oʻquvchilar buni majburiy bilim emas, balki qalban his etiladigan qadriyat sifatida qabul qiladilar. Oʻqituvchi quyidagi matnni beradi:

“Mening Vatanim – Oʻzbekiston. Bu yurt tinchligi va obodligi bilan mashhur. Biz uning kelajagimiz uchun oʻqishimiz, bilimli boʻlishimiz kerak. Har bir bola yurtini sevsa, u yanada gullab-yashnaydi.”

Soʻng quyidagi taʼriflar orqali oʻyin davom ettiriladi:

- “Bu yurt kelajagi uchun masʼul shaxs” → Oʻquvchi
- “Bu yerda yashash va uni asrash burch” → Vatan

- “Bu yurtni sevish eng oliy fazilat” → Vatanparvarlik

Xulosa qilib aytganda, “Ta’rif egasini toping” metodini boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matn orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda qo‘llash o‘ta samarali hisoblanadi. Chunki bu metod o‘quvchini faollikka undaydi, mavzuni chuqurroq anglashga yordam beradi va tarbiyaviy maqsadni bilim bilan uyg‘unlashtiradi. Boshqa metodlardan farqli ravishda, ushbu usul bolada mustaqil fikr yuritish, mantiqiy xulosa chiqarish va eng muhimi – Vatanga muhabbatni his etishga yordam beradi. Zero, boshlang‘ich sinfdan boshlab shakllangan vatanparvarlik tuyg‘usi kelajakda ongli, mas’uliyatli va fidoyi fuqaro yetishib chiqishining mustahkam poydevoridir.





Yangi innovatsion metod: V.A.T.A.N modeli

Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarida nafaqat savodxonlik, balki ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, xususan, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Vatanparvarlik – bu shaxsning o'z yurtiga nisbatan chuqur hurmat, sadoqat, mas'uliyat va fidoyilik hissi bo'lib, u bolalik davridan boshlab shakllantirilishi lozim. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida badiiy matnlardan foydalanish ushbu jarayonning samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Biroq amaliyotda badiiy matnlarni o'qitish jarayonida ko'pincha faqat mazmuni tushuntirish va savol-javoblar bilan cheklanib qolish holatlari uchraydi. Natijada matnning tarbiyaviy potentsiali to'liq ochilmaydi. Shu boisdan, ushbu ilmiy ishda “Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida badiiy matn o'qitish orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish” mavzusiga mos holda mutlaqo yangicha, avval qo'llanilmagan metod ishlab chiqildi va u asosida bitta badiiy hikoya chuqur tahlil qilindi.

Innovatsion metod: V.A.T.A.N modeli (Voqeani Anglash – Tasavvuriy Aks – Tafakkuriy Anglash – Niyat va Natija)

Mazkur metod "V.A.T.A.N modeli" nomi bilan ataldi. Bu metod badiiy matni o'qitish jarayonini to'rt bosqichda tashkil etishni nazarda tutadi:

1. Voqeani Anglash (VA) – o'quvchining matndagi voqealarni to'g'ri idrok etishi.
2. Tasavvuriy Aks (TA) – o'quvchining o'sha voqea asosida ichki obraz yaratishi.
3. Tafakkuriy Anglash (TAfA) – voqea va obrazni vatan tushunchasi bilan bog'lash.
4. Niyat va Natija (NN) – o'quvchida vatanparvarlikka doir ongli qaror va xulqiy refleksiya shakllanishi.

Mazkur metodning asosiy farqi shundaki, unda badiiy matn faqat o'qilmaydi, balki o'quvchining ongida hayotiy pozitsiya shakllantiruvchi vositaga aylanadi. Bu jarayon hissiy, kognitiv va axloqiy komponentlar uyg'unligida kechadi.

V.A.T.A.N modeli konstruktivizm, gumanistik pedagogika va kompetensiyaviy yondashuv integratsiyasiga asoslanadi. Ushbu metodda o'quvchi subyekt sifatida talqin qilinadi. Matn esa bilish va tarbiyalash vositasi sifatida emas, balki ma'naviy tajriba manbai sifatida ko'riladi. Har bir bosqich o'ziga xos psixopedagogik vazifalarni bajaradi. Voqeani Anglash bosqichi kognitiv idrokni rivojlantiradi. Tasavvuriy Aks emotsional rezonansni kuchaytiradi. Tafakkuriy Anglash ijtimoiy ongni faollashtiradi. Niyat va Natija esa shaxsiy pozitsiyani mustahkamlaydi.

“Qadimiy chinor tagidagi bayroq” hikoyasi

Qishloq chetidagi qadimiy chinor daraxti tagida har kuni bitta bolakay o‘tirardi. Uning ismi Javlon edi. Javlon har ertalab maktabga ketar ekan, chinor tagida hilpirab turgan bayroqqa qarab bir zum to‘xtar, yuragini g‘urur hissi qamrar edi. Bu bayroqni uning bobosi, urush qatnashchisi Mo‘min aka o‘z qo‘llari bilan o‘rnatgan edi. Bobosi unga doimo shunday der edi: “Bu bayroq – sening yuragingga osilgan mas’uliyat belgisi. U yiqilsa, vatan ham seni kutmaydi.”

Bir kuni kuchli shamol kelib, bayroq arqonini uzdi. Bayroq yerga tushdi. Buni ko‘rgan Javlon yuragi uvishib ketdi. U darhol yugurib ona uyiga kirdi va bobosining eski sandig‘idan igna-ip topib, bayroqni tikdi. So‘ngra chinor tagiga qaytib, uni yana baland qilib o‘rnatdi. O‘sha paytda u o‘zini haqiqiy vatan posboni his etdi.

Hikoya tahlili

1. Voqeani Anglash. Bu bosqichda o‘quvchilarga hikoyaning asosiy syujeti aniqlatildi. Javlonning bayroqqa munosabati, uning bobosi bilan aloqasi va bayroqning ramziy ma‘nosi tushuntirildi. Savollar orqali matn mohiyati ochib berildi:

- Bayroq nima sabab yerga tushdi?
- Javlon qanday munosabat bildirdi?
- Boboning so‘zlarida qanday ma‘no mujassam?

2. Tasavvuriy Aks. O‘quvchilardan ko‘zlarini yumib, o‘zlarini Javlon o‘rnida tasavvur qilish so‘raldi. "Agar sen bayroqni yerda ko‘rsang nima qilarding?" degan psixo-tarbiya mashqi o‘tkazildi. O‘quvchilar ona yurt ramzlariga nisbatan ruhiy munosabatni his etdilar.

3. Tafakkuriy Anglash. Bu yerda bayroqning ramziy ma‘nosi kengaytirildi. Bayroqni tiklash – vatanni asrash, unga bo‘lgan sadoqat belgisi sifatida talqin qilindi. O‘quvchilar vatanparvarlik tushunchasini shaxsiy tajriba bilan bog‘lashga o‘rgatildi.

4. Niyat va Natija. O‘quvchilar bayroq, til, urf-odat va tarixni asrashga doir o‘z shaxsiy niyatlarini yozma ravishda ifoda etdilar. Bu bosqichda ularning ongida vatanparvarlik ijtimoiy mas’uliyat sifatida mustahkamlandi.

V.A.T.A.N modeli yordamida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quyidagi sifatlar shakllandi: milliy g‘urur, yurtga sadoqat, ramzlarni hurmat qilish, ijtimoiy faollik, mas’uliyat hissi. Mazkur metod innovatsionligi shundaki, u faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki bolada vatan tushunchasini ichki qadriyatga aylantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matn orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish faqatgina matnni o‘qitish bilangina emas, balki uni ma‘naviy

aks ettirish orqali amalga oshirilishi zarur. V.A.T.A.N modeli ushbu jarayonni tizimli va samarali tashkil etishga imkon beradi. Ushbu metod o'quvchilarda nafaqat savodxonlik, balki ijtimoiy ong, milliy tuyg'u va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida ushbu metod boshqa badiiy janrlar – ertak, she'r, rivoyatlarni o'qitishda ham qo'llanishi mumkin. Shu orqali boshlang'ich ta'limda vatanparvarlikni shakllantirishning yangi pedagogik modeli yaratiladi. Mazkur metod nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy-didaktik nuqtayi nazardan ham puxta tizim asosida ishlab chiqilgan. Uning tuzilmasi quyidagi komponentlardan iborat:

- ✓ Motivatsion komponent – o'quvchida badiiy matnga nisbatan ichki qiziqish uyg'otish;
- ✓ Emotsional komponent – matn vositasida hissiy javob yaratish;
- ✓ Semantik komponent – voqea va obraz mazmunini chuqur anglash;
- ✓ Qadriyatli komponent – vatan tushunchasini shaxsiy qadriyat sifatida shakllantirish;
- ✓ Refleksiv komponent – o'z xatti-harakatini ongli baholash va yo'naltirish.

Bu komponentlar o'zaro uyg'unlashgan holda o'quvchining shaxsiy rivojiga xizmat qiladi.


O'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usining shakllanish darajasini aniqlash uchun Bayroq va milliy ramzlarga munosabat darajasi, vatan mavzusida fikr bildirish qobiliyati, ijtimoiy mas'uliyatni anglash, matn mazmuniga hissiy munosabat, shaxsiy xulqiy qarorlar mezonlar ishlab chiqildi. Baholash 3 darajada olib boriladi:

- **Boshlang'ich** – yuzaki tushunish;
- **O'rta** – ongli munosabat;
- **Yuqori** – ichki qadriyat sifatida qabul qilish.

Mazkur metod boshlang'ich yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlariga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, unda emotsional qabul yuqoriligi, taqlidchanlik, ramziy tafakkur ustunligi, o'yin orqali o'zlashtirish, ijobiy namunalarga ehtiyoj jihatlari inobatga olingan. Natijada bolalarda vatanparvarlik hissi majburiy emas, tabiiy jarayon sifatida shakllanadi.

V.A.T.A.N modeli boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy matn orqali vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan, ilmiy asoslangan, innovatsion va kompleks pedagogik yondashuvdir. Ushbu metod o'quvchini passiv tinglovchidan faol fikrlovchi

va ongli fuqaroga aylantiradi. U nafaqat bilim, balki ijtimoiy pozitsiya va ma'naviy mas'uliyatni tarbiyalaydi. Shu sababli ushbu modelni boshlang'ich ta'lim amaliyotiga joriy etish dolzarb pedagogik vazifa sifatida baholanadi.



XULOSA

“Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matnlarni o‘qitish orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish metodikasi” mavzusida tayyorlangan ushbu metodik qo‘llanma zamonaviy ta‘lim siyosati, davlatimiz rahbarining ta‘lim-tarbiya sohasiga oid qarashlari va amaliy islohotlari, shuningdek, boshlang‘ich ta‘lim metodikasi bo‘yicha ilmiy-nazariy qarashlar asosida ishlab chiqildi. Qo‘llanma mazmunida ta‘lim jarayonida badiiy matnning o‘rni, uning vatanparvarlik tarbiyasidagi tarbiyaviy salohiyati hamda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun amaliy-metodik yo‘riqnomalar tizimli ravishda yoritildi.

Bugungi globallashuv, axborot oqimi keskin tezlashgan, turli mafkuraviy xavf-xatarlar kuchaygan bir davrda boshlang‘ich sinf o‘quvchisida Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, fuqarolik mas‘uliyati va ma‘naviy barqarorlikni shakllantirish ta‘lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matnlarni shunchaki o‘qish va qayta hikoya qilish bilangina cheklanib qolmasdan, ularni tarbiyaviy mazmun, ma‘naviy qadriyatlar, vatanparvarlik g‘oyalari bilan uyg‘un holda o‘qitish zarurati kuchaymoqda. Shu nuqtai nazardan qo‘llanma doirasida taklif etilgan metodlar majmuasi o‘quvchini faqat bilim oluvchi emas, balki fikrlovchi, his qiluvchi, ongli tanlov qiluvchi va Vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

Metodik qo‘llanmada Keys-stady, Sinkveyn, “Vatan obrazini his etish” (VOHE), evristik va kreativ yondashuvlar, “Ta‘rif egasini toping” metodi hamda yangi innovatsion V.A.T.A.N modeli integratsiyalashgan pedagogik tizim sifatida taklif qilindi. Har bir metod alohida bo‘limda ilmiy asoslab berildi, badiiy matnlar asosida ishlab chiqilgan namunaviy mashg‘ulotlar, hikoyalar, topshiriqlar, savol-javoblar orqali konkretlashtirildi va sinf sharoitida qo‘llash imkoniyatlari yoritildi.

Birinchiidan, Keys-stady (case-study) texnologiyasi badiiy hikoya asosida real hayotga yaqin bo‘lgan muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, o‘quvchida halollik, mas‘uliyat, do‘stlik, fidoyilik kabi axloqiy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali usul sifatida asoslab berildi. “Sodiqlik sinovi” kabi hikoyalar misolida o‘quvchilarga do‘stga yordam berish va halollik o‘rtasidagi ziddiyatli tanlov, qaror qabul qilish, o‘z xatti-harakatlariga axloqiy baho berish jarayonlari bosqichma-bosqich ochib berildi. Keys-stady texnologiyasi: muammo qo‘yilishi, vaziyatni tahlil qilish, guruhiy muhokama, muqobil yechimlarni taqqoslash, yakuniy xulosa chiqarish bosqichlaridan iborat holda tashkil etildi.

Natijada o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarga nisbatan ongli yondashuv, Vatan, maktab, ota-ona, ustoz ishonchiga xiyonat qilmaslik, halollik tamoyiliga sodiq qolish

kabi vatanparvarlikning axloqiy asosi bo'lgan sifatlar shakllanishiga erishish mumkinligi asoslandi.

Ikkinchidan, Sinkveyn metodi o'qish va yozish asosida fikrlarni rivojlantirish dasturi sifatida badiiy matnlar vositasida Vatan, bayroq, ona yurt, mustaqillik, qahramonlik kabi tushunchalarni emotsional, ixcham va obrazli shaklda o'quvchi ongiga singdirish vositasi sifatida tavsiflandi. "Bayroqni sevgan bola" kabi hikoyalar asosida tuzilgan sinkveynlar o'quvchida:

- mavzuni bir so'z bilan (Vatan, Bayroq, Ona yurt);
- ikki sifat bilan (muqaddas, aziz, ulug');
- uch fe'l orqali (asraydi, birlashtiradi, ilhomlantiradi);
- to'rt so'zli gap orqali shaxsiy munosabatni;
- yakuniy gap orqali umumiy xulosani

ifodalash ko'nikmasini rivojlantirishi ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berildi. Bu metod orqali o'quvchi badiiy matnni nafaqat tushunadi, balki u bilan ichki muloqotga kirishadi, Vatan haqidagi shaxsiy qarashlarini so'z bilan ifodalashga o'rganadi, bu esa vatanparvarlik tuyg'usining ichki ehtiyoj sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, "Vatan obrazini his etish" (VOHE) metodi boshlang'ich sinf o'quvchisining psixologik xususiyatlarini, ya'ni emotsional-idrokiy qabul qilish, obrazli tafakkur va taqlidchanlik xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqildi. Bu metodda Vatan tushunchasi abstrakt shior yoki nazariy ta'rif orqali emas, balki badiiy matnda tasvirlangan tabiat manzaralari, ona yurt tasviri, qahramonlar xatti-harakatlari orqali "his etiladigan" obraz sifatida talqin qilinadi.

VOHE metodining:

- Vatan obrazini kashf etish (matndan vatan, yurt, ona zamin, tabiat, xalqga oid so'zlarni ajratish);
- obrazni tasvirlash (rang, kayfiyat, tovush, mehr manbai sifatida tasavvur qilish);
- hissiy mulohaza ("Agar Vatan gapira olsa, nima derdi?" kabi savollar);
- shaxsiy pozitsiya ("Men Vatanim uchun..." jumlasini davom ettirish);
- ijodiy ifoda (mini-matn, kichik hikoya yoki she'r yozish)

bosqichlari orqali o'quvchining qalbiga ona yurt tasviri chuqur singishi, Vatan tushunchasi shaxsiy qadriyatga aylanishi ta'kidlandi. Bu metod orqali o'quvchilarda

Vatanga daxldorlik hissi, ekologik madaniyat, milliy qadriyatlarga hurmat va ijtimoiy mas'uliyat rivojlanishi ko'rsatib berildi.

To'rtinchidan, evristika metodi va unga bog'liq kreativ usullar (brenrayting, "Yopiq maktub", "Shlyapadagi hislar", "Tugallanmagan rasm") badiiy matnni chuqur tahlil qilish, muammoli tafakkurni shakllantirish, qahramonlar ruhiyatiga kirish, shaxsiy refleksiya va ijodiy tafakkurni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida asoslandi. Evristik suhbat orqali o'qituvchi tayyor xulosa bermasdan, savol-javoblar, qiyoslash, taxmin qilish, sabab-oqibatni aniqlashga yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida o'quvchini mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.

"So'nmas chiroq" hikoyasi misolida o'quvchilarga berilgan savollar – qashshoqlik va o'ziga ishonchsizlik, ustoz so'zining ta'siri, ichki "chiroq" timsoli – nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki Vatan oldidagi mas'uliyat, ilm orqali yurtga xizmat qilish g'oyalarini anglashga xizmat qiladi. Brenrayting metodi orqali o'quvchi o'z fikrini erkin yozma shaklda bayon etadi, "Yopiq maktub" va "Shlyapadagi hislar" usullari orqali qahramon ruhiyatiga kirib, empatiya, kechinmalarni tushunish, boshqalarning dardiga befarq bo'lmaslik kabi fazilatlar tarbiyalanadi. "Tugallanmagan rasm" metodi asosida esa tasavvur, fantaziya, obrazli fikrlash va badiiy matn mazmunini vizual ifodalash ko'nikmalari shakllanadi. Bularning barchasi vatanparvar shaxsning zarur sifatleri bo'lmish sezgirlik, mas'uliyat, noodatiy fikrlash kabi jihatlarni qo'llab-quvvatlaydi.

Beshinchidan, "Ta'rif egasini toping" metodi o'quvchilarni o'yin asosida fikrlashga, ta'rif orqali tushuncha va obrazni topishga, mantiqiy tahlil qilishga undaydigan interfaol usul sifatida tavsiflandi. Ushbu metodni vatanparvarlik mavzusiga moslashtirish orqali "Vatan", "Bayroq", "Gerb", "Mustaqillik", "Vatanparvar bola", "Ona yurt" kabi tushunchalar ta'riflar orqali ongli ravishda o'zlashtirilishi ta'minlanadi. "U davlatning mustaqil belgisi hisoblanadi" – bayroq, "Bu yurt kelajagi uchun mas'ul shaxs" – o'quvchi, "Bu yurtni sevish eng oliy fazilat" – vatanparvarlik kabi juftliklar orqali o'quvchi tushunchalarning mazmunini nafaqat yodlaydi, balki his qiladi, o'z hayoti bilan bog'lay boshlaydi. Bu metod guruhviy ishlash, bir-birining fikrini tinglash, dalillash, xato ustida ishlash, nutq faoliyatini faollashtirish bilan birga, bolalarda Vatanga nisbatan g'urur va mas'uliyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy matn asosida ajratilgan ta'riflar bilan ishlash, ularga mos tushunchani topish jarayonida matnning tarbiyaviy qatlamlari yanada chuqurroq ochiladi.

Oltinchidan, metodik qo'llanmaning ilmiy-amaliy yangiligi va markaziy o'rni sifatida taklif etilgan V.A.T.A.N modeli (Voqeani Anglash – Tasavvuriy Aks – Tafakkuriy Anglash – Niyat va Natija) alohida e'tiborga loyiq. Ushbu innovatsion metod badiiy matnni o'qitish jarayonini faqat mazmunni tushunish bilan cheklab qo'ymay, uni o'quvchi ongida ma'naviy-tarbiyaviy tajriba, shaxsiy pozitsiyani shakllantiruvchi

jarayonga aylantiradi. “Qadimiy chinor tagidagi bayroq” hikoyasi asosida ishlab chiqilgan V.A.T.A.N modeli quyidagi jihatlarni o‘zida mujassamlashtiradi: Voqeani Anglash bosqichida o‘quvchi matndagi voqealar, qahramonlar, ularning xatti-harakati va motivlarini tushunadi. Tasavvuriy Aks bosqichida bayroq, chinor, boboning nasihati, Javlonning ichki kechinmalari obraz sifatida qalbida jonlanadi. Tafakkuriy Anglash bosqichida bayroq timsoli Vatan, mas’uliyat, sadoqat, tarixiy xotira bilan bog‘lanadi. Niyat va Natija bosqichida o‘quvchi “Men Vatanim uchun...” degan jumlaning shaxsiy qarori bilan davom ettiradi va o‘z hayotida amalga oshirishga intiladigan xulqiy yo‘nalishni belgilaydi.

V.A.T.A.N modeli orqali badiiy matn o‘quvchi hayotida ichki “burilish nuqtasi”ga aylanishi, unda bayroq, til, qadriyatlar, ona zaminni asrashga doir ongli niyat paydo bo‘lishi ta’kidlandi. Ushbu metod motivatsion, emotsional, semantik, qadriyatli va refleksiv komponentlarni bir butun tizimda birlashtiradi va boshlang‘ich sinf o‘quvchisining yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlariga to‘la mos keladi.

Yuqorida ta’kidlangan metodlarning barchasi bir-biridan ajralgan holda emas, balki yagona metodik tizim sifatida qo‘llanilganda, boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarining mazmunini boyitadi, badiiy matnning tarbiyaviy salohiyatini to‘la ochib beradi, o‘quvchida Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy faollik kabi sifatlarni izchil ravishda shakllantiradi.

Metodik qo‘llanma asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matnlarni o‘qitish orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish ilmiy asoslangan, nazariy va amaliy jihatdan puxta ishlab chiqilgan metodik yondashuvni talab etadi. Qo‘llanma aynan shu ehtiyojni qondirishga qaratilgan.
2. Keys-stady, Sinkveyn, VOHE, evristik-kreativ metodlar, “Ta’rif egasini toping” hamda V.A.T.A.N modeli singari usullar kompleks qo‘llanganda, o‘quvchilarda nafaqat matnning o‘qish va tushunish, balki uni hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash, shaxsiy xulosa chiqarish, Vatan oldidagi burch va mas’uliyatni anglash ko‘nikmalari shakllanadi.
3. Metodlar majmuasi o‘quvchining kognitiv (bilish), emotsional (his qilish), axloqiy (qadr-qimmat, mas’uliyat), ijtimoiy (hamkorlik, fuqarolik), ijodiy (tasavvur, fantaziya, yangicha fikrlash) rivojlanishini bir vaqtda ta’minlaydi. Aynan mana shu integrativ yondashuv vatanparvar shaxsni tarbiyalashning eng muhim sharti hisoblanadi.
4. Qo‘llanma mazmunida taklif qilingan metodlar boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining darsni rejalashtirish va tashkil etish jarayonini yengillashtiradi,

o‘quvchilarni darsga faol jalb etadi, darsni biryoqlama ma’ruza yoki oddiy savol-javob shaklidan chiqarib, jonli muloqot, hamkorlik, ijodiy izlanish maydoniga aylantiradi.

5. Tavsiya etilayotgan metodlarni sinf sharoitida muntazam va tizimli qo‘llash orqali o‘quvchilar ongida Vatan tushunchasi “dars mavzusi” emas, balki hayotiy qadriyat, shaxsiy e’tiqod va ichki ehtiyoj sifatida shakllanishiga erishish mumkin.
6. V.A.T.A.N modeli ushbu metodik tizimning eng muhim innovatsion bo‘g‘ini bo‘lib, u kelgusida boshqa badiiy janrlar, yuqori sinflar, hatto boshqa fanlarda vatanparvarlik, fuqarolik, ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonlarini tashkil etishda ham samarali qo‘llanishi mumkin. Bu esa metodni keng ko‘lamli ilmiy-amaliy dastur sifatida takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu asosda quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

- ✓ Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun malaka oshirish kurslarida ushbu metodlar, ayniqsa V.A.T.A.N modeli bo‘yicha maxsus trening va amaliy mashg‘ulotlar tashkil etish;
- ✓ Umumta’lim maktablari o‘qish darslari ishlanmalari, metodik qo‘llanmalar, darslik va o‘qituvchi kitoblariga Keys-stady, Sinkveyn, VOHE, evristik va kreativ yondashuv, “Ta’rif egasini toping” metodlarini integratsiya qilish;
- ✓ Badiiy matnlarni tanlashda Vatan, ona yurt, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, tinchlik, mehnatsevarlik, fidoyilik kabi g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan asarlarga ustuvor ahamiyat berish;
- ✓ Ota-onalar bilan hamkorlikda vatanparvarlik mavzusida o‘qish kechalari, oilaviy mutolaa, Vatan haqida birgalikda sinkveyn tuzish, hikoyalar o‘qish kabi tadbirlarni yo‘lga qo‘yish.

Xulosa qilib aytganda, mazkur metodik qo‘llanma boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida badiiy matnlarni o‘qitish orqali vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan ilmiy-nazariy asoslar va amaliy tavsiyalarni o‘zida mujassamlashtirgan kompleks pedagogik manba bo‘lib xizmat qiladi. Unda taklif etilgan metodlar o‘quvchini bilimli, savodxon, vatanparvar, ijtimoiy faol va mas’uliyatli shaxs sifatida kamolga yetkazishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Shu jihatdan qo‘llanmani boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi talabalar, amaliyotchi o‘qituvchilar, metodistlar va tadqiqotchilar uchun samarali metodik yordamchi vosita sifatida qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan Adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy mas’uliyat – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
5. Abdullaeva Sh. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan, 2018.
6. Jo‘rayev R.X. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
7. Karimova M.A. Boshlang‘ich ta’limda tarbiyaviy ishlar tizimi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2017.
8. Xudoyberganova D.Q. O‘qish darslarida badiiy matn tahlili metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
9. Saidova N.M. O‘quvchilarda milliy ongni shakllantirish masalalari. – Toshkent, 2016.
10. Ismoilov A.B. Vatanparvarlik tarbiyasi nazariy asoslari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2015.
11. To‘xtayeva Z.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fuqarolik fazilatlarini shakllantirish. – Toshkent: Fan, 2018.
12. Mamatqulova D.S. Ma’naviy tarbiya metodlari va vositalari. – Samarqand, 2019.
13. Rasulova G.K. Badiiy matn va tarbiya uyg‘unligi. – Toshkent, 2020.
14. G‘oziev E.G. Bolalar psixologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
15. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Fan, 2016.
16. Nuriddinova S.H. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar psixologiyasi. – Buxoro, 2015.
17. Vygotskiy L.S. Tafakkur va nutq. – Moskva, 2011.
18. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. – New York, 1956.
19. Bruner J. The Process of Education. – Harvard University Press, 2009.

